

**MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK
O'ZBEK XALQINING YUKSAK QADRIYATIDIR.**

Muxammadiyeva Aziza Adxam qizi

QarDU. Kutubxona-axborot faoliyati 1-bosqich talabasi.

+998 908868634

[.muxammadiyevaaziza368@gmail.com](mailto:muxammadiyevaaziza368@gmail.com)

O'zbekiston barcha millatlar o'rtasida totuvlikni ta'minlash, ko'p millatli jamiyat tizimini saqlab qolish va mustahkamlash yo'lidan bordi. O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari birdek hurmat qilindi, ularning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratildi. Oqilona milliy siyosat tufayli O'zbekistonda yashayotgan barcha millatlarning vakillari orasida etnik-madaniy asoslarda jiplashish jarayoni sodir bo'ldi.

Kalit so'zlar: jiplashish, etnik-madaniy, BMT Bosh Assambelyasi, urf-odatlar, islohotlar, milliy qadriyatlar, konstitutsiya

Iftixor bilan aytishimiz mumkinki, jamiyat hayotining barcha jabhasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar o'z samarasini beryapti. Binobarin, istiqloq yillarida Vatanimizda yashayotgan turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Respublikamizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda millatlararo omillarning ahamiyati katta. **YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrda o'tkazilgan 28-sessiyasida qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"** dunyoda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini kafolatlash, teng huquqlilik hamda o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish

yo‘lidagi muhim qadam bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjat qabul qilingan sana — 16 noyabr butun dunyoda Xalqaro bag‘rikenglik kuni sifatida belgilangan. Poytaxtimizda ayni sana munosabati bilan “O‘zbekiston – millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik yurti” mavzusida ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi. Xususan, “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangani mamlakat Prezidenti va hukumatining xalqaro hujjatlarda belgilangan umuminsoniy vazifalarga qaratayotgani yuksak e‘tiborining namunasi hamdir. Yana bir isboti Prezident Shavkat Mirziyoyev , , O‘zbekistonda 30-iyulni , , Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilashni taklif etaman” deb fikr bildirganlaridir.

Qadimdan mamlakatimizda turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillari – turli xalqlar, etnik guruhlar aralashib, do‘stlik va hamjihatlikda yashab kelgan. Dunyoda nechta elat, qancha xalq bo‘lsa, har birining o‘ziga xos milliy urf odat va an‘analari mavjud. Bugungi globallashuv zamonida millatlar o‘rtasida turli nizolar, bo‘lib turgan bir paytda, 130 dan ortiq millat yashayotgan O‘zbekiston millatlararo totuvlik bilan har qancha faxrlansak arziydi. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish hisobiga xalqaro maydonda esa O‘zbekistonning obro‘si oshib bormoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar markazida, avvalo, inson manfaati, uning huquq va erkinliklarini ta‘minlash maqsadi turadi. Fuqarolar manfaatlarini faqatgina tinchlik va osoyishtalikni, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitni yaratish orqali ta‘minlash mumkin. Bugun dunyo koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq inqirozga duch kelgan bir sharoitda ko‘plab mintaqalarda millatlararo va konfessiyalararo ziddiyatlar kuchayayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Shu bois, boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish uchun birdamlikni saqlash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda aholining ko‘p millatli bo‘lishiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning qulay omili sifatida qaralmoqda. Ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni saqlash, dinlararo va millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish hisobiga xalqaro

maydonda O'zbekistonning obro'si oshib bormoqda. Xususan, mamlakatimizdagi davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib boriladi. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini o'n ikki tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi qoshida 138 ta milliy madaniy markaz, bundan tashqari, 16ta konfessiyaga tegishli 2300 ga yaqin diniy tashkilot faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston davlat delegatsiyasining xorijiy mamlakatlarga rasmiy tashrifi chog'ida tegishli milliy-madaniy markazlarning rahbarlari hukumat delegatsiyasi safida bormoqdalar. Xorijiy mamlakatlardan kelgan davlat delegatsiyalari vakillari esa O'zbekistondagi o'z millatiga mansub milliy – madaniy markazlarda bo'lib, uchrashuvlar, qiziqarli suhbatlar va muloqotlarda bo'lmoqdalar. Milliy-madaniy markazlar markazlarning O'zbekistondagi elchixonalari va diplomatik korpuslar bilan aloqalari mustahkamlandi, hamkorlikda tadbirlar o'tkazilmoqda. Barcha millat va elatlarga xos milliy bayram kunlari nishonlashmoqda, festivallar uyushtirilmoqda. Har bir millatning nomdor rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, olimlari, madaniyat va san'at arboblari bag'ishlangan badiiy ko'rgazmalar tashkil etilmoqda.

O'zbek xalqining o'ziga xos milliy qadriyatlari bor. Milliy qadriyat deganda millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlari, an'analari, marosimlarini tushunamiz. O'zbek xalqining shakllanishi qancha uzoq tarixiy jarayonda sodir bo'lgan bo'lsa, uning milliy qadriyatlari ham shuncha uzoq tarixiy jarayon davomida shakllangan.

O'zbek xalqiga xos quyidagi jihatlar uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan e'tirof etilgan:

- tu'ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- avlodlar xotirasiga sadoqat;
- kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;

- mehmondoʻstlik;
- maʼnaviyat- axloq -odob – maʼrifat;
- muomala mulozamat hayo, andishalilik;
- ogʻir kunlarda vazminlik, sabr- toqat va hokazo.

Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi maʼno-mazmun bilan boyitish yoʻlida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Oʻzbekistonda yashayotgan barcha millat va elat vakillari Respublika miqyosidagi bayramlar - Mustaqillik kuni, Navroʻz bayramlarida faol ishtirok etmoqdalar. Bu bayramlarda rus, ukrain, ozarbayjon, qozoq, tatar va boshqa xalqlar badiiy havaskorlarning chiqishlari qiziqish, xursandchilik bilan kutib olinmoqda. Barcha millat va elat vakillari Oʻzbekistonni oʻzining umumiy uyi, Vatani deb bilib uning ravnaqi yoʻlida sidqidildan xizmat qilmoqda. Bu Oʻzbekistonda yuritilayotgan oqilona milliy siyosatning mevasidir.

1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida Respublika millatlararo madaniyat markazi tuzildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar tufayli bu jarayon tez rivoj topdi. 2002-yilda Respublikamizda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat koʻrsatdi.

Milliy-madaniy markazlar uch asosiy yoʻnalishda faoliyat koʻrsatadilar:

- Har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish;
- Oʻzbekistonni oʻzining haqiqiy Vatani deb bilish va unga sadoqat bilan xizmat qilish;
- Oʻzbekiston davlatiga nom bergan oʻzbek xalqi bilan doʻstlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash, uning tilini, madaniyatini va tarixini bilish.

Milliy-madaniy markazlarning ishi yil sayin boyib, yangilanib bordi. Ularning tashabbusi va rahbarligida turli yoʻnalishdagi toʻgaraklar ishlay boshladi. Jumladan:

- o‘z milliy madaniyatini, tilini, urf-odatlarini, tarixini o‘rganish to‘garaklari;
- O‘zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o‘rganish to‘garaklari;
- milliy musiqa, raqs va hunar to‘garaklari faoliyat ko‘rsatdilar.

1992-yil yanvarida Millatlararo madaniyat markazi Respublika Baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Uning faoliyatida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston davlati ko‘magida Baynalmilal madaniyat markazi va milliy-madaniy markazlar 1996-yilda , , Bobur “ ko‘chasidagi muhtasham saroyga ko‘chib otdilar, bu majmua **Millatlar saroyi** degan nom oldi.

Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat muhitini saqlash, huquqiy savodxonlikni, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning siyosiy madaniyatini va faolligini oshirishni ta‘minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada kuchaytirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Millatlararo totuvlikni ta‘minlovchi huquqiy zaminlar yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida , , **O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”**, , , **O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar”**, deb belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8, 18-moddalar

Umuman olganda, xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O‘zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-

sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minalashtirilgan, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan, , Ma'rifat va diniy bag'rikenglik “ deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018 yil 12-dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rkenglik sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan biri sifatida 2018- yilda AQSH Davlat departamenti O'zbekistonni diniy erkinlik borasida “alohida tashvish uyg'otuvchi mamlakatlar” ro'yxatidan chiqarganini ko'rsatish mumkin. E'tiborli jihatlaridan yana biri, 2020-yil 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasidan bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMT ning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'ziligiga uch yil muddatga – 2021-2023 yillarga saylandi. Mamlakatimiz uchun BMT ga a'zo 193 davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Bu saylovda eng ko'p ovoz berilgan davlat O'zbekiston bo'ldi. Bu ham yurtimizda millati va dinidan qat'I nazar, inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bularning barchasi O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas'uliyatli sub'yekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashayotgan millatlar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamjihatlik rishtalari yangicha mazmun bn boyib bormoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat. Bu O'zbekistonning yanada barqaror mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi haqida O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqida iqtiboslar. , , **Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik"**
2. I. A. Karimov. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir.
3. Usmonov. O'zbekiston tarixi (Milliy istiqlol davri). Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 2-kurs talabalari uchun darslik. , , Ilm Ziyo" nashriyot uyi Toshkent – 2010
4. Ichki ishlar vazirligi veb sayti.
5. Sh. M. Mirziyoyev veb sayti.
6. Xalq so'zi gazetasi onleni veb sayti.